

MEN VA MENING TANAM. NUTQ O'STIRISH

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani

18-DMTT tarbiyachisi

Buranova Gulchehra Aliyevna

Annotatsiya Mazkur maqolada bolaning nutqini rivojlantirish jarayonida “Men va mening tanam” mavzusining o‘rni tahlil qilinadi. Bola o‘z tanasi haqida gapirish orqali so‘z boyligini oshirish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Nutq rivojlanishining asosiy usullari, jumladan, o‘yinlar, she‘r va q‘shiqlar, suhbat va savol-javoblar tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarning bolaning kognitiv rivojlanishiga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: bola rivojlanishi, interfaol usullar, kognitiv rivojlanish, muloqot qobiliyati, nutq o‘stirish, so‘z boyligi, tana qismlari.

Kirish. Nutq o‘stirish bolaning muloqot qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar atrof-muhit, o‘z tajribalari va o‘z tanasi haqida gapira olish orqali nutqiy rivojlanish darajasini oshiradilar. Ushbu maqolada bola nutqini o‘stirishda “Men va mening tanam” mavzusining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Mavzuning ahamiyati. Bola o‘z tanasi haqidagi bilimlarni shakllantirish orqali muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. U o‘zining qo‘llari, oyoqlari, boshi, yuzi kabi tana qismlari haqida gapirishi orqali so‘z boyligini oshiradi. “Bola o‘z tanasini bilishi orqali o‘z-o‘zini anglash jarayoni kuchayadi” (4). O‘zbek olimi Sh.S. Raxmatullayev fikriga ko‘ra, bola o‘z tanasi haqidagi tushunchalarni shakllantirish orqali o‘z fikrlarini aniq ifodalashga tayyorlanadi. Bu esa uning kelajakda fikrni aniq ifodalash qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirishda quyidagi usullar muhim o‘rin tutadi:

O‘yinlar va interfaol mashg‘ulotlar – bola o‘z tanasi qismlarini nomlash, ularga tegib ko‘rish va ularning vazifalarini tushuntirish orqali so‘z boyligini oshiradi (5). O‘zbek tadqiqotchisi A. Abdurahmonov esa nutq rivojlanishida multisensor yondashuv muhimligini ta’kidlaydi (1).

She'r va qo'shiqlar – bolaning nutqini boyitish va tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish uchun tanaga oid she'r va qo'shiqlar aytilishi mumkin. Rossiyalik olim L.V. Sherba bolalar nutqini rivojlantirishda she'riy matnlarning ta'sirchanligi haqida tadqiqot olib brogan (11).

Suhbat va savol-javoblar – bola bilan uning tanasi haqida suhbatlashish, “Bu nima?”, “Bu nima uchun kerak?” kabi savollar berish orqali mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mumkin (2). O'zbek tilshunosi U. Karimov bola tilini rivojlantirishda interfaol muloqotning ahamiyatini ta'kidlaydi (7).

Nutqni rivojlantirishda quyidagi mashg'ulotlar foydali bo'lishi mumkin:

“Men kimman?” o'yini – bola o'z ismi, yoshi va tashqi ko'rinishi haqida gapiradi.

“Tana a'zolarini tanib bil” mashg'uloti – rasm yoki o'yinchoqlar orqali tana qismlarini nomlash va ularning vazifalarini tushuntirish (6).

“Ko'zlar bilan ko'ramiz, quloqlar bilan eshitamiz” o'yini – tana qismlarining vazifalarini tushuntirishga qaratilgan interfaol dars. Rossiyalik olim A.N. Leontyev bu usul orqali bolaning kognitiv rivojlanishini o'rganib chiqqan.

Xulosa. “Men va mening tanam” mavzusi orqali bolaning o'zini anglash qobiliyati rivojlanadi, so'z boyligi oshadi va nutqi mustahkamlanadi. Nutq o'stirish jarayonida interfaol usullar va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish bolalarning muloqot qobiliyatlarini kuchaytiradi va ularning kelajakdagi akademik yutuqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (9).

Maqsad: Tana a'zolarini farqlash, ularning vazifalarini bilish va ularni to'g'ri parvarish qilish.

Ta'limiy: Tana a'zolari uchun zararli va foydali bo'lgan narsalarni o'rgatish va gigiyeva qoidalarini rioya qilish.

Kerarkli jihozlar: odam tanasi tasvirlarngan plakat, ta'limiy o'yinlar uchun kartochkalar, selofan qo'qop, rangli doirachalar, geometrik shakllar, suv, machalka, sabzavotlar, fastfutlar.

Mashg'ulotning borishi:

Bolalar musiqa sadosi ostida kirib kelib, badantarbiya mashqlarini bajaradilar.

Tarbiyachi: - Bolalar, tana a'zolarini yaxshi bilib olish uchun, uning vazifalari bilan tanishamiz, "Stop mikrofon" o'yinini o'ynabolarimiz. Siz tana a'zolarini aytasiz, oxirgi aytgan bola g'olib bo'ladi.

1-bola: - Burun – nafas olish va hidlash uchun;

2-bola: - Ko'z – ko'rish uchun;

3-bola: - Qo'l – ushlash uchun;

4-bola: - Tirnoq – barmoqlarni himoya qilish uchun;

5-bola: - Kiprik – ko'zlarni himoya qilish uchun.

Tarbiyachi: - Imron g'olib bo'ldi. Ana, bolalar, biz hamma tana a'zolarimizning vazifalarini bilib oldik. Endi ularni gapirtirsak, nima deyishar ekan, eshitaylik-chi:

Bosh:

Bo'lsa ham necha yoshda

Aql bo'ladi boshda.

Aql kirmasa boshga,

Bosh urilar toshga.

(Imron)

Burun:

Egallar muhim o'rin

Axir xid sezar burun

Qachon aksa urgan chog',

Darrov deymiz: bo'ling sog'!

(Shaxina)

Og'iz:

Og'iz, og'iz! ko'p yema!

Og'iz, og'iz! Ko'p dema!

So'zing ishga bo'lsin mos,

Og'iz, og'iz, gapir rost!

(Fayoza)

Barmoqlar:

Ikki qo'lda do'st, o'rtoq

Beshta, beshtadan barmoq,

Goh qo'lqopga qamalar,

Gog o'ngacha sanalar.

(Nozima)

Ko'z:

Ko'z ko'radi olamni

Yaxshi, yomon odamni.

Uy, darxt va tog'larni,

Osmon, dala, bog'larni.

(Sarvinoz)

Quloq:

Quloqqa kirar so'zlar,

So'zlar egasin izlar,

Boshqa quloqdan biroq,

So'zlar chiqmasa yaxshiroq.

(Muslima)

Tarbiyachi: - Barakalla, bolajonlar, endi sizlar bilan "Koptokni ol" o'yinini o'ynaymiz.

Bolalar komandaga qarab qo'l, oyoq va boshqa tana a'zolarini ushlaydilar. Oxirgi koptokni ushlagan bola g'olib bo'ladi.

Tarbiyachi: - Ofarin! Mexroj g'olib bo'ldi.

Tarbiyachi: - Tana a'zolarimiz bizdan xursand, ba'zida esa xafa bo'lishdai, aytingchi, nega xafa bo'lishdi?

Bolalar: - Kir bo'lganda, noto'g'ri ovqatlanganda.

Tarbiyachi: - Barakalla, qachon xursand bo'lishadi?

Bolalar: - Tishlarni yuvib, yuvib, badantarbiya qilib, to'g'ri ovqatlanganda.

Tarbiyachi: - To'g'ri. Bolalar, mana bu yerda inson uchun zararli va foydali mahsulotlar bor, menga ularni ajratib olishga yordam bering.

Bolalar tabiiy mahsulotlarni: meva, sok va boshqalarni yashil patnosga, fastfut, energetic ichimlik, kolbasalarni qizil patnosga qo'yishadi.

Keyin ularni nima uchun foydali va zararli ekanligini aytishadi.



Tarbiyachi: - Bolalar, endi kayfiyatimizni ko'tarib olish uchun, quvnaq harakatli o'yin o'ynab olamiz.

Endi, bolajonlar, sizlar bilan markazlarga bo'linib olamiz.

1. Qurish-yasash va matematika markazida rangli doirachalarni qo'lqop barmoqlariga terib chiqamiz.



2. Syujetli, rolli o'yinlar markazida sabzavotlardan salat tayyorlaymiz, "Oshpaz o'yini".

3. Til va nutq markazida "Joyni top" ta'limiy o'yini o'ynaladi.

4. Fan va tabiat markazida suv va machalka yordamida tajriba o'tqaziladi.



5. San'at markazi rangli qog'ozlardan odam tanasini applikatsiya usulida yasash, qishki kiyimlarni kiyintirish.



Mashg'ulot oxirida bolalar rag'batlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov A. Multisensor yondashuv va bola nutqining rivojlanishi. Samarqand: Ma'rifat, 2015.
2. Bruner J. Child's Talk: Learning to Use Language. Norton, 1993.
3. Smit P. Early Childhood Development and Education. Routledge, 2001.
4. Vygotsky L.S. Thought and Language. MIT Press, 2006.
5. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. Norton, 2002.
6. Jonson M. The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning. University of Chicago Press, 1997.
7. Karimov, U. Interfaol muloqot va bola nutqining rivojlanishi. Toshkent: Sharq, 2010.
8. Leontyev, A.N. Deyatel'nost', soznanie, lichnost. Moskva: Nauka, 1991.
9. Rogof B. Apprenticeship in Thinking: Cognitive Development in Social Context. Oxford University Press. 1990.
10. Raxmatullayev Sh.S. Bolalar nutqining rivojlanish bosqichlari. Toshkent: Fan, 2008.
11. Sherba, L.V. Rechevaya deyatel'nost' i ee razvitie. Moskva: Nauka, 2004.